

INGLIZ DRAMATURGIYASIDA AMIR TEMUR OBRAZINING TARIXIYLIK VA BADIY TO‘QIMA UYG‘UNLIGIDAGI TALQINI

Mansurova Shodiya Isroil Qizi

University of Business and Science,

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi magistranti

70111801 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21056204>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz dramaturgiyasida Amir Temur obrazining shakllanishi, ayniqsa Charlz Sandersning “Buyuk Temur” dramasi misolida tarixiylik va badiiy to‘qima nisbatining namoyon bo‘lishi tadqiq etiladi. Maqolada Yevropa adabiy tafakkurida Sharq mavzusining yuzaga kelishi, Amir Temur siymosining G‘arb sahna adabiyotida madaniyatlararo timsolga aylanishi, shuningdek, Sanders dramaturgiyasida Sohibqiron obrazining adolatparvar, kechirimli, e‘tiqodli va siyosiy jihatdan dono hukmdor sifatida talqin qilinishi yoritiladi. Tahlil davomida tarixiy drama janrida tarixiy haqiqat va muallif fantaziyasi o‘rtasidagi munosabat, tarixiy shaxs obrazining adabiy-estetik vazifasi hamda G‘arbda Sharq haqidagi tasavvurlarning badiiy matnga ko‘chish mexanizmlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ingliz adabiyoti, Sharq mavzusi, Amir Temur, Charlz Sanders, “Buyuk Temur”, tarixiylik, badiiy to‘qima, dramaturgiya, Yelizaveta davri, G‘arb va Sharq munosabatlari.

Abstract. This article examines the formation of the image of Amir Temur in English drama, with particular attention to the correlation between historicity and artistic fiction in Charles Saunders’s tragedy The Great Tamerlane. The study discusses the rise of the Eastern theme in European literary consciousness, the transformation of Amir Temur into an intercultural symbol in Western stage literature, and Saunders’s interpretation of Tamerlane as a just, merciful, faithful and politically wise ruler. The article also reveals the aesthetic function of the historical personality in drama and the ways in which Western perceptions of the East were transformed into literary representation.

Keywords: English literature, Eastern theme, Amir Temur, Charles Saunders, The Great Tamerlane, historicity, artistic fiction, drama, Elizabethan age, East-West relations.

KIRISH

Jahon adabiy jarayonida G‘arb va Sharq munosabatlari doimo muhim ilmiy muammo sifatida o‘rganilib kelgan. Bu munosabatlar faqat tarixiy-siyosiy aloqalar doirasida emas, balki badiiy tafakkur, obraz yaratish, syujet qurilishi, ekzotik makon tasviri va madaniyatlararo muloqot ko‘rinishlarida ham namoyon bo‘ladi. Ingliz adabiyotida Sharq mavzusining shakllanishi, ayniqsa, Uyg‘onish davri va undan keyingi dramaturgiyada faol ko‘zga tashlanadi. Bu davrda Sharq ingliz sahnasida bir tomondan qudrat, sirlik, xavf va ekzotika manbai sifatida, ikkinchi tomondan esa siyosiy va axloqiy masalalarni yoritish uchun qulay badiiy maydon sifatida gavdalanadi.

Amir Temur siymosining ingliz adabiyotida badiiy talqin etilishi ana shu murakkab jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Sohibqiron hayoti va faoliyati Yevropa tarixiy xotirasida, avvalo, 1402-yildagi Anqara jangi, Boyazidning mag‘lubiyati va Usmonli tahdidining vaqtincha jilovlanishi bilan bog‘liq holda eslanadi. Natijada Amir Temur Yevropa ongida faqat tarixiy shaxs emas, balki Sharq qudrati, harbiy salohiyat, davlat boshqaruvi va g‘oliblik timsoli sifatida ham idrok etilgan. Ingliz dramaturglari bu tarixiy siymoga murojaat qilar ekanlar, uning biografiyasini xronologik tarzda tiklashdan ko‘ra, o‘z davrining estetik, siyosiy va axloqiy ehtiyojlariga mos badiiy model yaratishga intilganlar.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, ingliz dramaturgiyasida Amir Temur obrazini tahlil qilish orqali G'arb adabiyotida Sharq mavzusining qanday tarixiy manbalar, og'zaki rivoyatlar, siyosiy tasavvurlar va muallif fantaziyasi asosida shakllanganini aniqlash mumkin. Ayniqsa, Charlz Sandersning “Buyuk Temur” dramasi bu borada alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur asarda Amir Temur obrazi Kristofer Marlo yaratgan zabtkor va qudratga intiluvchi Tamburleyn obrazidan farqli ravishda rahmdil, kechirimli, adolatparvar va siyosiy jihatdan yetuk hukmdor sifatida beriladi.

Tadqiqotning maqsadi Charlz Sanders dramaturgiyasida Amir Temur obrazining tarixiylik va badiiy to'qima uyg'unligida qanday talqin etilganini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ingliz adabiyotida Sharq mavzusining tarixiy-adabiy omillari, Amir Temur haqidagi dastlabki Yevropa tasavvurlari, “Buyuk Temur” dramasi g'oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi va undagi tarixiy haqiqat hamda badiiy fantaziya nisbatini tahlil qilish vazifa qilib olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqola qiyosiy-tarixiy, tarixiy-tipologik, germeneytik va badiiy tahlil metodlariga tayanadi. Qiyosiy-tarixiy yondashuv Amir Temur obrazining turli davr ingliz dramaturgiyasida qanday o'zgarib borganini ko'rsatish imkonini beradi. Tarixiy-tipologik metod esa Sharq hukmdori obrazining G'arb sahna adabiyotida qanday umumiy semantik vazifalarni bajarganini aniqlashga yordam beradi. Germaneytik tahlil orqali badiiy matndagi obraz, replika, syujet burilishi va dramatik konfliktlarning ma'nosi izohlanadi.

Mavzuga oid adabiy-ilmiy manbalar orasida Kristofer Marlning “Tamburlaine the Great”, Charlz Sandersning “The Great Tamerlane”, Nikolas Rouning “Tamerlane” dramalari, shuningdek, Amir Temur haqidagi tarixiy va ilmiy tadqiqotlar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Yevropa adabiyotida Sohibqiron siymosining shakllanishi masalasini o'rganishda Hilda Hukxem, Jean-Paul Roux, B. Ahmedov, A. Parfenov kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, G'arb va Sharq adabiy aloqalari, tarjima, tarixiylik va badiiylik masalalariga doir nazariy qarashlar tahlilning ilmiy asosini tashkil etadi.

Tarixiy shaxsni badiiy asarda tasvirlashda ikki muhim omil mavjud: birinchisi tarixiy faktlar majmuasi, ikkinchisi esa muallifning estetik maqsadi va badiiy konsepsiyasidir. Tarixiy drama tarixiy voqeani aynan ko'chirish emas, balki uni dramatik konflikt va sahnaviy ta'sir talablari asosida qayta yaratishdir. Shu bois bunday asarlarda muallif tarixiy shaxsning real hayotidan ayrim faktlarni oladi, ayrimlarini o'zgartiradi, ayrimlarini esa butunlay badiiy to'qima asosida yaratadi. Charlz Sandersning “Buyuk Temur” dramasi ham aynan shunday yondashuv asosida tahlil qilinishi kerak.

INGLIZ ADABIYOTIDA SHARQ MAVZUSINING SHAKLLANISHI

G'arb adabiyotida Sharq haqidagi tasavvurlar antik davrlardan boshlab shakllangan. Homer, Gesiod, Gerodot kabi mualliflar asarlarida Osiyo, forslar, skiflar, massagetlar va Markaziy Osiyo xalqlari haqida turli ma'lumotlar uchraydi. Antik manbalarda Sharq ko'pincha Yevropaga nisbatan boshqa, sirli va qudratli makon sifatida tasvirlangan. Bunday tasavvurlar keyingi davrlarda ham badiiy adabiyot uchun muhim obrazlar zaxirasini yaratdi.

Ingliz adabiyotida Sharq mavzusining kuchayishi XVI asr oxiri va XVII asr boshlariga to'g'ri keladi. Buning asosiy sabablaridan biri Angliyaning xalqaro savdo yo'llarida faol ishtirok eta boshlashi, Usmonli imperiyasi bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalarning kengayishi, shuningdek, Yevropaning siyosiy maydonida musulmon Sharqi omilining kuchayishidir. Bu davr ingliz sahnasida turklar, forslar, mavrlar, skiflar, arablar va boshqa sharqlik obrazlar ishtirok etgan ko'plab dramatik asarlar yaratildi.

Sharq mavzusiga bag'ishlangan pyesalarda tarixiy aniqlik doimo yetakchi mezon bo'lmagan. Mualliflar ko'pincha sayohatnomalar, tarixiy solnomalar, og'zaki xabarlar va xalq orasida tarqalgan rivoyatlarga tayanib ish ko'rganlar. Shu sababli bu asarlarda geografik noaniqliklar, xalqlar va dinlar haqidagi chalkash tasavvurlar, tarixiy voqealarni erkin talqin qilish holatlari uchraydi. Biroq bu noaniqliklar asarlarning adabiy ahamiyatini butunlay kamaytirmaydi. Aksincha, ular o'sha davr G'arb tafakkurida Sharq qanday qabul qilinganini ko'rsatib beruvchi muhim belgilar hisoblanadi.

Yelizaveta davri dramaturgiyasida Sharq, avvalo, konflikt maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz sahnasi uchun Sharq hukmdorlari qudrat, shafqatsizlik, jasorat, hukmronlik, ba'zan esa donolik va adolat timsoliga aylangan. Bunday obrazlar yordamida ingliz dramaturglari hokimiyat, monarxiya, urush, e'tiqod, sadoqat, xiyonat va inson irodasi kabi masalalarni badiiy yoritganlar. Demak, Sharq mavzusi ingliz adabiyotida faqat geografik yoki etnografik qiziqish mahsuli emas, balki murakkab estetik va ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida shakllangan.

AMIR TEMUR OBRAZINING G'ARB SAHNA ADABIYOTIDA PAYDO BO'LISHI

Amir Temur nomining Yevropa adabiyotida keng tarqalishi bevosita tarixiy-siyosiy voqealar bilan bog'liq. 1402-yilda Anqara jangida Sohibqiron qo'shinlarining Boyazid ustidan g'alaba qozonishi Yevropa uchun favqulodda muhim voqea bo'lgan. Chunki Usmonli imperiyasi o'sha davrda Yevropa davlatlari uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan edi. Boyazidning mag'lubiyati esa Yevropa siyosiy ongida Amir Temurni turklar tahdidini jilovlagan qudratli kuch sifatida gavdalantirdi.

G'arbda Amir Temur haqidagi ilk ma'lumotlar elchilar, sayyohlar, tarixchilar va solnomachilar orqali tarqaldi. Rui Gonsales de Klavixo, Sultoniyalik Jan, keyinchalik turli Yevropa tarixchilari va adiblari Sohibqiron hayoti, Samarqand saroyi, harbiy yurishlari va diplomatik aloqalari haqida ma'lumotlar berganlar. Biroq bu ma'lumotlar har doim ham to'liq va aniq bo'lmagan. Ko'p hollarda ular tarixiy haqiqat, afsona, og'zaki rivoyat va muallif tasavvuri aralashgan holda yetib kelgan.

Kristofer Marlning “Tamburlaine the Great” tragediyasi Amir Temur obrazini ingliz dramaturgiyasiga olib kirgan eng muhim asarlardan biridir. Marlo yaratgan Tamburleyn obrazi qudrat, zabt etish, iroda va cheksiz intilish timsoli sifatida namoyon bo'ladi. U tarixiy Amir Temur shaxsining aniq biografik nusxasi emas, balki Uyg'onish davri ingliz adabiyotida kuch va inson imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarni mujassamlashtiruvchi sahnaviy obrazdir.

Keyingi davr dramaturglarida, xususan Charlz Sanders va Nikolas Rou ijodida Amir Temur obrazi boshqa yo'nalishda talqin qilinadi. Agar Marlo asarida Tamburleyn ko'proq zabtkorlik va qudratga intilish ramzi bo'lsa, Sanders va Rou dramalarida u odil, kechirimli, xalqparvar va siyosiy jihatdan yetuk hukmdor sifatida gavdalanadi. Bu o'zgarish Amir Temur obrazining G'arb adabiyotida bir xil qolmaganini, balki har bir davrning estetik ehtiyoji va siyosiy muhitiga qarab qayta talqin etilganini ko'rsatadi.

CHARLZ SANDERSNING “BUYUK TEMUR” DRAMASIDA G'OYA VA MAZMUN

Charlz Sanders 1681-yilda Amir Temur haqida “Buyuk Temur” nomli tragediyani yaratadi. Drama so'zboshi, bag'ishlov she'ri, besh parda va epilogdan iborat bo'lib, unda Tamerlan, Mandrikard, Odmar, Abdalla, Boyazid, Ashteriya, Aksalla, Arseyn, Zayda, Ishpatiya, Hamzeh kabi obrazlar ishtirok etadi. Asarning bosh syujet chizig'i Tamerlan va Boyazid to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lsa-da, dramatik voqealar rivojida saroy fitnalari, muhabbat, xiyonat, ota va farzand munosabatlari, hokimiyat uchun kurash kabi masalalar asosiy o'rin egallaydi.

Drama boshida Boyazid mag'lub hukmdor sifatida sahnaga olib kiriladi. Sanders Tamerlanni uning ustidan qozonilgan g'alabani shafqatsizlik bilan emas, balki hukmdorga xos vazminlik va

ulug'vorlik bilan qabul qiluvchi qahramon sifatida tasvirlaydi. Tamerlan Boyazidga nafrat bilan emas, balki g'olib hukmdorga xos kechirimlilik bilan murojaat qiladi. Uning “Faith is the brightest Jewel of a Crown” mazmunidagi fikri asarda sadoqat va ishonchni hukmdorlikning eng oliy fazilati sifatida talqin etadi.

Sanders asarida Boyazid mag'rur, o'z sha'nini hamma narsadan ustun qo'yuvchi, mag'lubiyatni qabul qila olmaydigan hukmdor sifatida beriladi. Tamerlan esa, aksincha, g'alaba bilan mast bo'lmaydigan, dushmanga nisbatan ham adolat va muruvvat ko'rsata oladigan hukmdor sifatida gavdalanadi. Bunday qarama-qarshilik asar dramatzimini kuchaytiradi va bosh qahramon xarakterini yanada aniqroq ochib beradi.

Dramaning keyingi voqealari Arseyn va Ashteriya o'rtasidagi muhabbat chizig'i bilan rivojlanadi. Ashteriya Boyazidning qizi, Arseyn esa Tamerlanning o'g'li sifatida beriladi. Ikki dushman hukmdor farzandlarining bir-biriga muhabbat qo'yishi klassik dramaturgiyadagi konfliktli syujet an'analarini eslatadi. Bu holat asarda tarixiy voqeadan ko'ra badiiy konflikt ustuvor ekanini ko'rsatadi. Mandrikardning Ashteriyaga bo'lgan da'vosi, Ishpatiyaning rashki, saroy ichidagi fitnalar va xiyonatlar tarixiy asosdan ko'ra ko'proq dramaturgik ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan “Buyuk Temur” dramasini to'liq ma'nodagi tarixiy drama deb baholash qiyin. Asarda Anqara jangi, Boyazidning mag'lubiyati va Tamerlan nomi tarixiy fon vazifasini bajaradi. Ammo syujetning asosiy qismi muhabbat, fitna va saroy ichki ziddiyatlariga qurilgan. Sanders tarixiy shaxs nomidan tomoshabinni jalb etish, asarga ulug'vorlik va siyosiy ramziylik berish uchun foydalangan. Biroq u tarixiy voqealarni manbaviy aniqlik bilan tiklashni asosiy maqsad qilib qo'ymagan.

TARIXIYLIK VA BADIY TO'QIMA UYG'UNLIGI

Tarixiylik badiiy asarda tarixiy davr ruhi, ijtimoiy muhit, tarixiy shaxs xarakteri va voqealar mantiqini muayyan darajada haqqoniy aks ettirishni anglatadi. Badiiy to'qima esa muallifning tarixiy materialni estetik maqsad asosida qayta yaratishi, syujetni dramatiklashtirishi, obrazlar va konfliktlarni badiiy talablarga mos shakllantirishidir. Tarixiy drama ana shu ikki omilning muvozanatiga tayanadi. Ammo har bir tarixiy drama real tarixiy voqeani aynan takrorlashi shart emas. Muhimi, tarixiy materialning badiiy g'oyaga qanday xizmat qilishi va obraz orqali qanday ma'no yaratilishidir.

Charlz Sanders dramasi tarixiylik va badiiy to'qima munosabatining qiziqarli namunasi hisoblanadi. Unda Tamerlan va Boyazid nomlari, ular o'rtasidagi tarixiy to'qnashuv, Boyazidning mag'lubiyati kabi faktlar tarixiylik qatlamini tashkil etadi. Biroq dramadagi Mandrikard, Arseyn, Ashteriya, Ishpatiya bilan bog'liq syujetlar, saroy fitnalari va romantik konfliktlar asosan badiiy to'qima mahsulidir. Demak, asarda tarixiy fakt sahnaviy voqeani boshlovchi turtki vazifasini bajaradi, keyingi rivoj esa muallif fantaziyasi va dramaturgik qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Sanders Amir Temur obrazini ijobiy axloqiy-siyosiy idealga yaqinlashtiradi. U Sohibqironni kechirimli, e'tiqodli, xalq manfaatini ko'zlovchi, dushmaniga ham marhamat ko'rsata oladigan hukmdor sifatida talqin qiladi. Bu talqin G'arbda Amir Temur haqidagi ijobiy tasavvurlarning mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Boyazid tahdididan qutqaruvchi kuch sifatidagi Amir Temur haqidagi Yevropa xotirasi Sanders badiiy konsepsiyasida sezilarli o'rin tutadi.

Biroq Sanders yaratgan Tamerlan real tarixiy Amir Temurning to'liq badiiy rekonstruksiyasi emas. U muallifning siyosiy-axloqiy g'oyalarini ifodalovchi sahnaviy modeldir. Asarda Tamerlan orqali adolatli hukmdor qanday bo'lishi kerak, hokimiyat qanday axloqiy mezonlarga tayanishi zarur, g'olibning mag'lubga munosabati qanday bo'lishi lozim degan savollar badiiy shaklda

qo'yiladi. Shu sababli Tamerlan obrazi tarixiy shaxs, badiiy timsol va axloqiy ideal vazifalarini birgalikda bajaradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz dramaturgiyasida Amir Temur obrazi uch asosiy semantik qatlamda namoyon bo'ladi. Birinchi qatlam tarixiy qatlam bo'lib, u Sohibqiron nomi, Anqara jangi, Boyazidning mag'lubiyati va Yevropaning Usmonli xavfidan qutulishi haqidagi tarixiy xotira bilan bog'liq. Ikkinchi qatlam badiiy-estetik qatlam bo'lib, unda Amir Temur obrazi sahnaviy konflikt, dramatik ta'sir va qahramon xarakterini ochish vositasiga aylanadi. Uchinchi qatlam esa mafkuraviy-axloqiy qatlam bo'lib, bu yerda Tamerlan adolatli hukmdor, rahmdil g'olib, sadoqat va e'tiqod tarafdori sifatida talqin qilinadi.

Sanders asarining asosiy xususiyati shundaki, unda Amir Temur obrazining tarixiy ulug'vorligi romantik va saroy-dramatik syujet bilan birlashtiriladi. Muallif tarixiy voqelikdan asarning obro'sini oshirish, tomoshabinda qiziqish uyg'otish va obrazga siyosiy-ma'naviy vazn berish uchun foydalanadi. Biroq syujet ichida tarixiy tafsilotlar emas, balki axloqiy tanlov, sadoqat, muhabbat, rashk, xiyonat va kechirimlilik masalalari markazga chiqadi.

Bunday talqin G'arb adabiyotida Sharq mavzusining o'ziga xos xususiyatini ham ko'rsatadi. Sharq bu yerda faqat voqealar sodir bo'ladigan geografik makon emas, balki G'arb o'zini, o'z siyosiy orzularini, hukmdorlik haqidagi tasavvurlarini va axloqiy mezonlarini sinovdan o'tkazadigan ramziy maydondir. Amir Temur obrazi esa ana shu ramziy maydonning eng ta'sirchan timsollaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz dramaturgiyasida Amir Temur obrazining shakllanishi G'arb va Sharq adabiy aloqalari tarixida alohida o'rin tutadi. Bu obraz dastlab Yevropaning tarixiy xotirasi, siyosiy ehtiyojlari va Sharq haqidagi qiziqishlari ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik ingliz sahna adabiyotida turli g'oyaviy-estetik vazifalarni bajargan murakkab badiiy timsolga aylangan.

Charlz Sandersning "Buyuk Temur" dramasi bu jarayonning muhim namunalaridan biridir. Asarda Sohibqiron tarixiy shaxs sifatida emas, balki tarixiy qudrat va axloqiy adolatni mujassamlashtirgan sahnaviy qahramon sifatida talqin qilinadi. Muallif tarixiy faktlardan foydalanadi, ammo ularni to'liq tarixiy rekonstruksiya uchun emas, balki badiiy konflikt, dramatik ta'sir va siyosiy-axloqiy g'oyani kuchaytirish uchun xizmat qildiradi.

Sanders yaratgan Tamerlan obrazi Marlo Tamburleynidan farqli ravishda shafqatsiz zabtkor emas, balki kechirimli, e'tiqodli, adolatparvar va dono hukmdor sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat ingliz adabiyotida Amir Temur siymosi bir yoqlama talqin qilinmaganini, aksincha, har bir davr muallifi va auditoriyasi ehtiyojiga ko'ra qayta ma'nolantirilganini ko'rsatadi. Demak, Amir Temur obrazi ingliz dramaturgiyasida tarixiy haqiqat, og'zaki rivoyat, muallif fantaziyasi va G'arbning Sharq haqidagi tasavvurlari kesishgan nuqtada shakllangan ko'p qatlamli adabiy fenomen hisoblanadi.

Amir Temur obrazining ingliz dramaturgiyasidagi asosiy talqinlari

Muallif	Asar	Obrazning yetakchi xususiyati	Badiiy vazifasi
Kristofer Marlo	"Tamburlaine the Great"	Qudrat, iroda, zabtkorlik, cheksiz intilish	Uyg'onish davri inson irodasi va hokimiyat ehtirosini ifodalash
Charlz Sanders	"The Great Tamerlane"	Adolat, kechirimlilik, e'tiqod, siyosiy	Ideal hukmdor va axloqiy monarxiya

Muallif	Asar	Obrazning yetakchi xususiyati	Badiiy vazifasi
		donolik	haqidagi qarashlarni ifodalash
Nikolas Rou	“Tamerlane”	Rahm-shafqat, xalqparvarlik, odil podshohlik	Siyosiy-axloqiy idealni sahnaviy obraz orqali ko'rsatish

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Marlowe Ch. Tamburlaine the Great. Part I-II. – London: Penguin Classics, 2003.
3. Saunders Ch. The Great Tamerlane. A Tragedy. – London, 1681.
4. Rowe N. Tamerlane. A Tragedy. – London, 1702.
5. Roux J.-P. Tamerlan. – Paris, 1994.
6. Hukhem H. Yetti iqlim sultoni. – Toshkent, 1996.
7. Ahmedov B. Amir Temur darslari. – Toshkent: Sharq, 2001. – 144 b.
8. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 312 b.
9. Ryui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshestviya ko dvoru Timura v Samarkande v 1403–1406 gg. – Sankt-Peterburg, 1881.
10. Dadaboyev O.O. Kristofer Marlo ijodida Sharq ekzotikasi masalasi // O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2013.
11. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovedenie. – Leningrad: Nauka, 1979. – 494 s.
12. Temur tuzuklari / Fors tilidan A. Sog'uniiy va H. Karomatov tarjimasi, B. Ahmedov tahriri ostida. – Toshkent, 1991. – 144 b.